

O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY OLIY TA’LIM MUASSASALARINING TASHKIL TOPISHI TARIXI VA TAKOMILLASHUVI

Ramatov J.S. “Ijtimoiy fanlar” kafedراسi mudiri, f.f.d., professor
Jumaniyozova N.S “Ijtimoiy fanlar” kafedراسi katta o‘qituvchi
Erniyozov O. K “Ijtimoiy fanlar” kafedراسi katta o‘qituvchisi
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

XX-asrda O‘rta Osiyodagi yirik ijtimoiy hodisalardan biri ta‘limning zamonaviy ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lib, Osiyoda birinchi universitetning tashkil topishidir. Albatta, uning taraqqiyot yo‘li bir tekisda bo‘lmaganligi tarixiy ma‘lumotlardan ham ma‘lum. Dastlab Turkiston xalq universiteti shu yilning o‘zida davlat universitetiga aylantirildi. Besh yil o‘tib dorilfunun maqomi berilishi bilan yana o‘zgarish ro‘y berdi. G‘oyat ulkan hududdagi aholini malakali kadrlar bilan ta‘minlash va bu o‘lkalar turmush tarzini o‘zgartiradigan darajada ilmiy ishlar bilan shug‘ullanishga yo‘naltirilgan bu maskan 1923 yilning iyul oyidan e‘tiboran birinchi O‘rta Osiyo davlat universiteti (O‘ODU) deb nomlana boshladi va bu davrga kelib, ushbu o‘quv yurtida nafaqat Turkiston respublikasi, balki Xorazm xalq respublikasi, Buxoro xalq respublikasi, Qirg‘iz avtonom viloyati fuqarolari ham o‘qiyotgan va ularning soni yildan yilga ortib borayotgan edi. Chunonchi, shu yili yuz nafar qirg‘iz yoshlari talabalikka qabul qilingan. Eron hukumati ellik nafar talabani o‘qitib zamonaviy mutaxassis tayyorlab berilishini so‘rab murojaat qilgan. Bu hol universitetning faoliyat doirasini yanada kengaytirib, xalqaro maqomga ega bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Aytish kerakki, TurDUning O‘ODUga aylanish sanasi manbalarda turlicha ko‘rsatiladi. Jumladan, «XX let Sredne-Aziatskogo gosudarst-vennogo universiteta» kitobining 13-betida bu hodisa 1923 yilning 19 iyulida ro‘y bergan deyilsa, «ToshDU ilm va ma‘rifat maskani» asarida o‘sha yilning 17 iyulida ekani qayd etiladi. 1924 yilda o‘tkazilgan milliy chegaralanish va tashkil qilingan har bir yangi respublikaning bilimli zamonaviy mutaxassislarga o‘ta muhtojligi O‘rta Osiyo davlat universiteti-ning ahamiyatini yanada oshirdi. O‘sha davr hukumati tomonidan ulkan hudud va ko‘p sonli aholiga ega bo‘lgan mintaqadagi yagona universitetning ravnaqiga imkoniyat darajasida e‘tibor qaratildi. Lekin, bu imkoniyat yetarli darajada emas va cheklangan tartibda bo‘lgan, hamda o‘sha davr mafkurasi universitetning erkin taraqqiy etishga yo‘l qo‘ymasdi. Shu sababli O‘ODUning rivojlanish yo‘li ancha murakkab tarzda bo‘lgan. SHO‘ro davrida tayyorlangan hamda ular asosida keyingi yillarda yozilgan ayrim adabiyotlarda O‘rta Osiyo davlat universiteti yildan yilga miqdor jihatidan ham, sifat jihatidan ham o‘sib, yuksalib borganligi qayd etiladi va buni isbotlashga xizmat qiladigan raqamlar keltiriladi. Holbuki, birinchi universitetning taraqqiyoti ham bir tarzda tekis kechmagan. 1924 yilda universitet kutubxonasi fondidagi kitoblar soni 75000 nusxada bo‘lganligi va ular orasida nodir qo‘lyozma asarlar ham mavjudligi

hamda 1940 yilga kelib kutubxona 376 ming kitob fondiga egalgi tarixiy manbalardan ma'lum. 1923 yilning noyabridan «O'rta Osiyo davlat dorilfununi axboroti» (Byulleten Sredneaziatskogo gosudarst-vennogo universiteta) chop etila boshlangan va Rossiyadan kelgan olimlarning rus tilida yozilgan turli mavzudagi ilmiy izlanishlari chop etilganligi ushbu nashrning tez orada dunyo olimlarining e'tiboriga tushishiga sabab bo'lgan. 1925 yilda «O'rta Osiyo davlat dorilfununi axboroti» chet ellarga 278 ta, 1929 yilda 438 ta oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlariga jo'natilganligidan ham bilishimiz mumkin.

Milliy chegaralanish o'tkazilib, O'zbekiston alohida respublikaga aylangandan so'ng ham O'ODU rasmiy ravishda sobiq ittifoq Markaziy Ijroiya qo'mitasi ixtiyorida qolgan. 1926 yilga kelib universitetning fakultetlari soni ko'payib, yettitani tashkil etgan va uning qoshida fizika-matematika, huquq, sharq fakulteti, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, melioratsiya muhandisligi, xo'jalik kabi fakultetlari faoliyat yuritar edi. 1929 yilda talabalar soni 2750 nafarni tashkil etgan va universitet fakultetlarining ichki ixtisoslashuvi kuchaygan va yangidan bo'limlar ochilishi va ularning soni ham ortib, shu bilan birga ilmiy salohiyat ham ortishiga olib kelgan. Bu davrga kelib yangi zaruriyat paydo bo'ldi, ya'nikim, O'rta Osiyo davlat universitetining ayrim fakultetlari asosida yangi oliy maktablarni ochish zaruriyati bo'lib, 30-yillar boshida universitet tarkibidagi bir qator fakultetlar mustaqil oliy o'quv yurtlari bo'lib alohida ajralib chiqqa boshlashdi. 1929-1932 yillarda Toshkentning o'zida O'ODU bazasida industrial, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, qishloq xo'jaligi irrigatsiyasi va mexanizatsiyasi, moliya-iqtisod, pedagogika institutlari, Samarqand shahrida xalq xo'jaligi instituti, Ashxobodda zooveterinariya instituti, hozirgi Xo'jandda qishloq xo'jaligi instituti tashkil etildi. Bulardan tashqari, universitetdan bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari ham ajralib chiqib, mustaqil ilmiy tashkilotlarga aylandi Ikkinchi jahon urushi arafasida O'rta Osiyo davlat universiteti asosida tashkil etilgan oliy o'quv yurtlari soni 14 taga yetdi.

Turkiston sho'rolar MIQiing 1919 yshg 31 yanvardagi 195-buyrug'i bilan tashkil etilib, 1920 yilning 11 fevralida ochilgan va to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan ishchi va dehqonlarni universitet «kursini o'tashga tayyorlashdan iborat» ishchi fakulteti bu davrga kelib, ancha oyoqqa turdi. Fakultetga o'zbeklar va boshqa yerli millat vakillarini qabul qilish bir qadar ko'paydi. Ilk bor 153 tinglovchi bilan ish boshlagan bu fakultet 1923 yilda 784, 1924 yilda 773, 1925 yilda 889, 1928 yilda 900 nafar tinglovchi qabul qildi. Lekin fakultetning ta'limiy tarkibi yerli aholi uchun o'ta noqulay tuzilgandi. Chunonchi, fakultet asosiy va tayyorlov bo'limdan iborat bo'lib, asosiy bo'limda uch yil, tayyorlov bo'limda ikki yil o'qish kerak bo'lardi. Demak, o'rta maktabni bitirmagan yurt egasi besh yil ishchi fakultetida, yana besh yil o'zi kirgan fakultetda o'qishi lozim bo'lardiki, bu yerli yoshlarning ilm olish imkoniyatini pasaytirardi. Faqat 1930 yilga kelib, fakultetda o'qish muddati uch yilga keltirildi. Shu holatda bu yordamchi fakultetning faoliyati 1938 yilga qadar davom etdi.

Universitetda mahalliy xalq vakillari soni haddan tashqari kam edi. Jumladan, 1925-1926 o'kuv yilida 157 nafar yerli aholi o'qishga qabul qilingan bo'lsa, 1928-1929 yilda bu ko'rsatkich 256 nafarga yetdi. Ularning yarmi o'zbek millatiga mansub kishilar edi. Lekin ularning juda katta qismi o'qishni oxiriga qadar yetkaza olmasdilar, albatga. Fikrimizni O'ODUga qabul qilinuvchilar miqdori bilan uni bitiruvchilar soni o'rtasida juda katta ayirma borligi ham isbotlaydi. Chunonchi, agar 1924 yilda universitetga 2278 nafar talaba qabul qilingan bo'lsa, besh yildan so'ng, ya'ni 1928 yilda O'ODUni bitirgan yosh mutaxassislar soni bor- yo'g'i 250 kishini tashkil qildi. Boshqacha aytganda, o'qishga kirgan har besh kishining birigina universitetni bitirib chiqqa oldi, xolos. Bularning orasida o'zbeklar qancha bo'lganligini faqat tasavvur etish mumkin. Shunga qaramay, baribir, sekinlik bilan bo'lsa-da, universitet o'quv-ilmiiy faoliyatida olg'a siljish davom etardi.

1922 yilda universitetning bitiruvchilari kam bo'lsa-da, mahalliy xalq vakillaridan keyinchalik sobiq ittifoq tibbiyot akademiyasining akademigi darajasiga erishgan Zulfiya Umidova kabi olimalar yetishib chiqqan. Yillar o'tishi bilan ilmga intiluvchi mahalliy yoshlardan millatimiz vakillari universitetda mutaxassis bo'lishga harakat qila boshlashdi. Buni biz 1928-1929 o'quv yilidagi raqamlardan ham bilishimiz mumkin, ya'ni abituriyentlarniig 19 foizi mahalliy aholi vakillaridan bo'lib, ko'pchiligi asosan o'zbeklar bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, abituriyentlarning aksariyati qismi kirish imtihonlaridan o'tolmasdi, kirganlarning ham ma'lum bir qismi o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lishardi. Lekin universitetda o'qishga, ilm va bilim olishga intilish jarayoni boshlangan va u ommaviylasha boshlagan. Yuqori darajadagi ilmni olishga bo'lgan ehtiyoj tobora yildan yilga ortib borgan. 1928-1929 o'quv yilidan e'tiboran barcha fakultetlar qoshida tayyorlov kurslari ochilib, ularga yerli aholi vakillari qabul qilinib, universitetga kirishga tayyorlanadigan bo'ldi. 1930 yilda bu kurslarda o'qish kunduzgi va kechki tarzda olib boriladigan tayyorlov bo'limlariga aylantirildi. Shuningdek, 1929 yildan boshlab, ikkinchi bosqichli maktabni, texnikum yoki qisqa muddatli o'qituvchilar institutni bitirgan yerli aholi universitetga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadigai bo'ldi. Sobiq ittifoq MIQning 1932 yil 19 sentabrdagi «Oliy maktab va texnikum-lardagi o'quv dasturlari va tartibi to'g'risidagi» qaroriga muvofiq qabul imtihonlari yana tiklandi. Universitetda imtihon sessiyalari va diplom ishlari himoyasi joriy etildi. Bu davrda ma'ruza oliy ta'limning asosiy usuli darajasiga ko'tarildi. 1930 yilning martida O'rta Osiyo xalqlari tillari fakultet-lararo kafedrasi tashkil etildi. Shu yillardan boshlab yerli millatlar tilini o'qitishga bir qadar e'tibor qaratildi. Bu tillardan biri bo'yicha kirish imtihonlari topshirish majburiy qilib qo'yildi. 30-yillar o'rtalariga kelib, birinchi marta universitetdagi ayrim fanlarii o'z tillarida o'qishlari zarur bo'lgan «milliy guruh»lar paydo bo'ldi. Lekin ta'limni milliy tilga o'tkazish tezgina ro'y berib qolmadi. Dastlab ayrim fanlargini milliy tilda o'qildi, keyinchalik matematika, fizika, botanika, zoologiyaga doir ba'zi kitoblar universitet domlari tomonidan o'zbekchalashtirildi. Bu harakat yana ham turli sur'atlarda davom

ettirildi. 1941 yilga kelib O'ODU professor-o'qituvchilari tarkibida 21 nafar o'zbek bo'lgan. O'ODU tarkibidan bir qator oliy o'quv yurtlari ajralib ketishi sababli 1931 yilga kelib, uning tarkibida birgina fizika-matematika fakulteti qoldi. Bu yagona fakultet asosida tez orada biologiya, ximiya va fizika-matematika kabi uch fakultet tashkil qilindi. Tabiiyki, talabalar soni keskin qisqarib ketgandi. Lekin, 1935 yilda tarix va geografiya fakultetlari ochilib, fakultetlar soni beshtaga yetib, chet tillar, pedagogika (1937), rus va o'zbek tillari (1939), jismoniy tarbiya va harbiy ish (1939) kabi bir qator fakultetlararo kafedralar tashkil etildi.

Sobiq ittifoq MIQning 1938 yil 16 apreldagi qarori bilan O'rta Osiyo davlat universiteti O'zbekiston Respublikasi Xalq komissariati kengashi tasarrufiga o'tkazildi. U esa O'ODU ni Xalq maorifi komissarligi qaramog'iga o'tkazdi. Endilikda universitetni mablag' bilan ta'minlash respublika hukumati zimmasiga tushardi. Shuniig uchun ham dastlabki yillarda universitet ta'minotida moliyaviy taqchillik va uning oqibati o'laroq, tashkiliy uzilishlar ro'y berdi.

O'rta Osiyo davlat universiteti rahbariyati garchi fakultetlar soni kamayib-ko'payib tursa-da, kafedralar tizimini sakdab qolish va uning miqdorini muntazam ravishda o'stirib borishga harakat qilgan. Kafedralar soni 1937 yilda 17 ta, 1938 yilda 36 ta bo'lgan bo'lsa, 1939 yilda 46 taga yetib, 1940 yilning boshiga kelib, professor-o'qituvchilar orasida 15 nafar fan doktori bo'lgan. Bu ko'rsatkich 1938 yilda 6 nafarni tashkil etgandi. Fan nomzodlari miqdori 85 kishiga yetdi (1938 yilda 52 nafar), professorlar esa 39 kishini tashkil qildi (1938 yilda 32 kishi), dotsentlar 60 nafarga yetdi (ikki yil oldin ular 32 kishi edi). 1939-1940 o'quv yilida universitet o'n sakkiz sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlagan va o'quv yilida universitetga hujjat topshirgan abituriyentlarning 40 foizi, talabalikka qabul qilinganlarning 25 foizi millatimiz vakillari edi.

1938 yilda ba'zi fakultetlarda sirtqi ta'lim tashkil etildi va 1939 yildayoq O'ODUning sirtqi bo'limini 18 kishi bitirib chiqdi. Bu holat yerli aholini oliy ta'lim bilan qamrab olishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1939 yilning 1 sentabrida O'rta Osiyo davlat universitetiga 2116 talaba qabul qilingan bo'lsa, shulardan 1560 nafari kunduzgi, 556 kishi sirtqi bo'limda bilim olardi. Ularning 683 nafari yerli millatlar vakillari bo'lib, bu 32,5 foizni tashkil etardi. Shularning yarmidan ko'prog'i o'zbeklar edi. Ko'rinadiki, 1939-1940 o'quv yilida universitetni bitirgan kishilar soni bor-yo'g'i 273 nafarni tashkil qildi.

Birinchi O'rta Osiyo davlat universiteti professor-o'qituvchilari tarkibida ham yerli ziyolilariing mikdori kam bo'lgan. 1930 yilda universitet domlalari orasida atigi 28 nafar yerli aholi vakili bo'lib, bu o'qituvchilarning bor-yo'g'i 6 foizini tashkil qilar edi. Oradan ikki yil o'tgach, bu ko'rsatkich 10 foizga yetdi. Bular orasida professor unvoni berilgan Abdulla Avloniy, Sulton Segizboyev, shu universitetni bitirgan yosh matematik olim Qori-Niyoziy, yerli xo'jalik va huquq fakultetining sobiq talabasi shoir Oybek kabilar bor edi. 1940 yilda O'ODU aspiranturasida 103 yosh mutaxassis tahsil

ko'rgan. Bu borada sezilarli o'sish bo'lganligini qayd etish lozim. Zero, 1937 yilda aspirantlar miqdori bor-yo'g'i 30 kishini tashkil etgandi. Aspirantlarning 40 foiziga yaqini yerli aholi vakillaridan iborat edi. Shu tariqa 1929 yilning 17-19 oktabr kunlari O'rta Osiyo davlat universiteti talabalari dunyo universitetlari orasida birinchi bo'lib, paxta terimiga chiqishdi. Bu yaroqsiz an'ana yurtimiz ozodlikka chiqqunga qadar, qariyb 66 yil davom etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyo davlat universiteti O'zbekiston qaramog'iga o'tgandan so'ng yerli aholi vakillarini o'qishga qabul qilish muntazam ravishda ko'tarilib bordi. O'tgan yillar davomida mahalliy kadrlarni oliy ta'limga jalb etmay turib, yurtni taraqqiy ettirish mumkin emasligi tobora yakqolroq anglab yetilmokda edi.

O'tgan asrniig 20-yillari yarmiga qadar ham hali biripchi O'ODUni dunyo universitetlari qatori ta'lim-tarbiyaviy va ilmiy-tashkiliy jihatdan bir qadar avtonomiyaga ega bo'lgan o'quv maskaniga aylantirishni umid qiladigan eski professura vakillari bor edi. Ular ilmiy va o'qitish jarayoni siyosat va mafkuradan xoli bo'lishini, ilmiy-tadqiqotlar olib borishda universitet tashkiliy-huquqiy mustaqilligiii saqlab qolishni istashardi. Shunday bo'lsa-da, universitet tashkil etilib, tiklanish davriga kirishi bilanoq, unda keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borish yo'lga qo'yildi. Garchi yuqori malakali va chuqur ilmiy tayyorg'arlikka ega mutaxassislar yetishmasligi muntazam ravishda sezilib tursa-da, universitet faoliyatiiiig ilk yillaridanoq, nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo tabiatini ilmiy maqsadlarda tekshirishga kirishildi. Universitet olimlari O'rta Osiyo va Qozog'istonning deyarli barcha hududlarida tadqiqot ishlari olib bordilar.

Universitet fizika-matematika fakulteti xodimlari B.P.Grabovs-kiy va I. F. Belyanskiylar o'zining ahamiyati jihatidan tengsiz bo'lgan kashfiyot qildilar. 1928 yilning 26 iyulida O'rta Osiyo harbiy okrugining tajriba stansiyasida ular yaratgan telefon apparati sinab ko'rildi. Ular radio orqali elektronur quvurchalaridan foydalaiib, sof elektron yo'l bilan dunyoda birinchi bo'lib harakatdagi tasvirni uzatish va qabul qilishga erishdilar. Misli ko'rilmagai bu kashfiyot gurli sabablar bilan o'z vaqtida qo'llab-quvvatlanmadi. Faqat 1971 yilning 16 aprelida YUNESKOning maxsus farmoyishi bilan bu kashfiyotniig qimmati va ahamiyati ko'rsatildi. Uning elektron televideniyei yaratish va rivojlantirishdagi o'rni jahon miqyosida rasman tan olindi.

O'ODUda talabalarining o'zini ilmiy ishlarga jalb etish borasida ham bir talay ishlar qilindi. 1940 yilda talabalarining birinchi umumuniver-sitet ilmiy konferensiyasi o'tkazildi. Keyinchalik bu an'anaviy tus oldi va hanuzga qadar davom etib kelmoqda. Bu davrda O'rta Osiyo davlat universiteti mintaqa ilmini rivojlantirishda tengsiz ahamiyatga ega bo'ldi. Bizda mavjud mutlaqo to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra, 1923-1940 yillar orasida O'rta Osiyo davlat universitetida o'qib chiqqan talabalar-ning 41 nafari akademik ilmiy unvoniga sazovor bo'lishgan.

1918 yilda mustaqil ish boshlagan sharqshunoslik institutining universitetga bir fakultet sifatida qo‘shib yuborilishi, keyinchalik bu fakultetning tugatilishi o‘zbeklarning o‘z tarixiy-ma’naviy ildizlaridan uzilishi yo‘lida atay tashlangan qadamlar edi. O‘zbekning yeridagi universitetda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitilmas, bu sohalar bo‘yicha mutaxassis tayyorlanmasdi . Filologiya fakulteti ikkinchi jahon urushining eng qaltis, Ittifoqdagi millatlarning birdamligisiz dushmani yengib bo‘lmashligi ma’lum bo‘lgan 1942 yilga kelib tashkil qilinishi, o‘zbek tilshunosligi, o‘zbek adabiyoti kafedralari shundagina ochilganligi ham yerli millatning o‘zini tanishiga hamisha to‘siq qo‘yib kelinganligi va bu to‘siqlar ilojsizlikdangina olinganligini ko‘rsatadigan dalildir. Shunisi qiziqki, O‘ODUda o‘zbek tili, adabiyoti, tarixi bo‘yicha biror kafedra bo‘lmagani holda 20-yillarning avvalidayeq birorta mutaxassis bo‘lmaganiga qaramay, antropologiya kafedrasini tashkil etilgandi. Gap borayotgan yillarda O‘rta Osiyo davlat universitetida ilmiy jarayon ancha qizg‘in kechdi, qator kitoblar yozildi, o‘nlab kashfiyotlar qilindi. Lekin olib borilayotgan tadqiqotlarga yerli millatlar manfaati nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, ko‘ngil xotirjam bo‘ladigan ipglar g‘oyat oz ekanligi ma’lum bo‘ladi. Chunonchi, tanikdi tarixchi olim V.Kun Rusga mo‘g‘ullar bosqini muammosini tekshirgan bo‘lsa, I.Dodonov Buyuk Pyotrning shahar islohotlari, L.Bajenov Bolgariya, D. Gramenitskiy esa Germaniya tarixi bilan shug‘ullandi. Albatta, bu tadqiqotlarning ham fan uchun muayyan ahamiyati borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Lekin begonalar tomonidan qilingan ilmiy izlanishlar bizning yurtimiz va xalqimizga hech qanday aloqasi va nafi yo‘qligini ham ta’kidlamaslik imkonsizdir. Bu davrda universitet olimlari tomonidan o‘lka tarixiga doir hech qanday tadqiqot olib borilmagan deyish mumkin emas, ammo bunday izlanishlarning, avvalo, kamligini, ikkshtchidan, borlarining ham sho‘ro mafkurasiga moslashtirilganligi ayon haqiqatdir.

1940 yilga kelib O‘rta Osiyo davlat universiteti nafaqat O‘zbekiston yoki O‘rta Osiyo, balki Ittifoqdagi yirik oliy maktablardan biriga aylandi. Uning ilmiy salohiyati haqida shuni aytish mumkinki, 40-yillar boshida O‘zbekistondagi barcha oliy o‘quv yurtidagi fan doktorlarining 80 foizi, professorlarning 56 foizi shu universitetda faoliyat ko‘rsatardi.

Tashkil etilishi vaqtidayoq O‘rta Osiyo davlat universiteti shu mintaqa respublikalari va Qozog‘istonda zamonaviy fanlarni rivojlantirish markazi bo‘lishi ko‘zda tutilgan edi. Shuning uchun ham universitet bag‘rida bir qator ilmiy-tadqiqot o‘choqlari tashkil etilib, mintaqa ehtiyoji uchun zarur hisoblangan fan sohalarini rivojlantiripgga e’tibor qaratildi.

Nima bo‘lganda ham, O‘rta Osiyo davlat universiteti mintaqa ilmiy fani va ta’lim tizimini malakali kadrlar bilan ta’minlash markazi missiyasini bajarganligi bor haqiqatdir. 1931-1932 o‘quv yilida Qozog‘iston respublikasida tashkil etilgan oliy o‘quv yurtida ishlash uchun O‘ODUdan 38 o‘qituvchi va 9 aspirant yuborilishi fakti ham buni ko‘rsatadi. Urushdan oldingi yillarda O‘ODU iste’dodli o‘zbek olimlari,

bo'lg'usi akademiklarning butun bir avlodini kamolga yetkazib berdi. Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Obid Sodiqov, Sodiq Umarov, Hamdam Usmonov kabi o'zbek akademiklari O'ODUda ayni shu yillarda tahsil ko'rishib, keyinchalik O'rta Osiyo hamda Qozog'istonning turli oliy maktablari va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat yurgizdilar. Ular zamonaviy ilmni olg'a siljitgan dunyo miqyosidagi olimlar silsilasini tashkil etdilar.

Bu yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti dunyoga Oybek, Abdulla Qahhor, Muxtor Avezov, Xidir Deryayev singari so'z san'atkorlarini yetkazib berdi. Mahalliy xo'jalik va huquq fakultetida olingan bilimlar Oybekda inson tengligi va iqqisodiy munosabatlarning odam tabiatiga ta'sirini aniq va ishonarli badiiy tasvirlaishga sabab bo'lgandir. Muxtor Avezovni insoniy munosabatlardagi chigal holatlarni butun ko'lami bilan aks ettirish mahorati shakllanishida, shubhasiz, uning O'ODU aspiranturasida olgan sabog'i qo'l kelganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Uning oldin fan nomzodi, so'ng filologiya fanlari doktori, Moskva davlat universiteti professori, akademik bo'lishida birinchi O'rta Osiyo universitetida ko'rgan tahsil beqiyos ahamiyat kasb etgani, shubhasiz.

Xullas, O'rta Osiyo davlat universiteti O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasida ilm-fanni rivojlantirish, yerli millatlardan ziyolilar qatlamini yetishtirish, oliy ta'lim tizimini shakllantirishda tengsiz bir o'rin tutganligini inkor etib bo'lmaydi.

Shu narsa aniqki, bir mamlakatda oliy ta'lim tizimi yuzaga kelishi uchun katta ilmiy asos, ya'ni fundament bo'lishi kerak. Mamlakatimizda arablar bosqiniga qadar ham katta tamaddunlar (sivilizatsiyalar) mavjud edi. Arxeologik tadqiqotlar shuni isbotlaganki, Iskandar Maqduniy yurishidan keyin bu yerda Sharq va G'arb madaniyatlari sintezi ham yuz berdi. Yunon-baqtriya madaniyati shu asosda shakllandi. Tarixdan ma'lumki, muayyan millat va xalqning madaniy va ma'naviy saviyasining asosiy ko'rsatgichlaridan biri mamlakatdagi ma'naviy muhit, ilm-fan va ta'lim-tarbiya jarayoni hamda uning darajasi bilan belgilanadi. Markaziy Osiyo, xususan, bugungi O'zbekiston hududi ham tarixda bu sohada dunyoda yetakchi o'rinlarda turgan. Mintaqamiz xalqlari tarixiga oid zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblangan «Avesto»da ham ma'naviy muhit, ilm-fan va ta'lim-tarbiya xususida muayyan fikrlar ilgari surilgan. Kitobda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, zardushtiylik yakkaxudolik dini sifatida Markaziy Osiyodan Hindiston, Janubi-G'arbiy Osiyo, Eron, Ozarbayjon hududlariga, ular orqali esa Yunoniston, Kichik Osiyo va Ioniya keng tarqalgan hamda ta'sir etgan. Soha mutaxassislari: «Ta'sir faqat bir tomonlama, zardushtiylik tomonidan bo'lgan», – deya e'tirof etishadi. «Avesto»ning ma'naviyat, ilmiy g'oya bilan bog'liq jihatlari shundaki, unda umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan ezgulik, uning qaror topishi uchun qarash g'oyasining ilgari surilganligi edi. Zardusht ta'limotida, olam tartibi va ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, xalqlar o'rtasidagi hamkorlik kishilarning ongli ravishda ezgulik tomonida turib faol kurashishga bog'liq, degan mustahkam g'oya ilgari surilgan. Mazkur g'oya bugungi milliy ma'naviyatimiz

tamal toshlaridan hisoblanib, u umuminsoniy ideallarni o'z ichiga mujassamlashtirgan edi. Eronshunoslar (S.N.Sokolov, L.A.Lelekov) «Avesto» kitobini maxsus «Avesto tili»da (o'rta forsiyga yaqin) oromiy yozuv asosidagi pahlaviy yozuvda bitilganini keltirishadi .

Oromiy yozuv asosida shakllangan bir necha yozuvlar keyingi davrlar insoniyat ilm-ma'rifatining yuksalishida muhim omil bo'ldi. Miloddan avvalgi I mingyillikning o'rtalarida Ahamoniylar saltanatida davlat boshqaruv ishlari oromiy yozuvda olib borilgan. Ahmoniylar saltanati tarkibida bo'lgan satrapliklarda ham o'z yozuvlarini vujudga keltirish bilan bog'liq ehtiyoj oromiy yozuv asosida qondirilgan. Masalan, miloddan avvalgi IV – III asrlarga kelib esa Samarqandda oromiy yozuv asosida sug'diy yozuv shakllangan. Samarqand Sug'dining o'zida uch xil yozuv amal qilgan (M. Is'hoqov). Ulardan birinchisi Samarqandda va Sug'dning markaziy hudud-larida shakllangani uchun «Samarqand sug'diy yozuvi» yoki «milliy sug'diy yozuv» nomi bilan yuritilgan. Ikkinchisi, asosan, o'lkadagi nasroniy diniy jamoalarida qo'llangan va oromiy alifbo asosida paydo bo'lgan suryoniy yozuv edi. Uchinchi yozuv milodning III asrida yashagan Moniy tomonidan joriy etilib, uning nomi bilan «Moniy yozuvi» deb yuritilgan . Shunga ko'ra, sug'diy tildagi manbalar uch xil yozuv orqali bizgacha yetib kelgan. Cug'diy yozuv suryoniy yozuvga yaqin holatda o'ngdan chapga qarab yoziladi. Ularning o'xshashligi ikkala yozuv ham oromiy yozuv asosida shakllanganligidan kelib chiqadi. Arab xalifaligi bosqiniga qadar oromiy yozuv asosida shakllangan sug'diy, pahlaviy, xorazmiy, suryoniy, boxtariy, uyg'ur, xo'taniy kabi yozuvlarning mavjud ekanligi, «Avesto», «Bundahishn» (pahlaviycha dunyoning yaratilish asoslariga bag'ishlangan), «Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlari» (sug'diy-buddaviy axloqiy doston), «Mast qiluvchi ichimliklar sutrasi» (milodiy 728 yilga oid axloqiy asar), «Sudashan haqidagi doston» (Buddani tug'ilishi haqidagi doston), Mug' tog'i sug'diy hujjatlarining tipologik tuzilishi hamda ularda nomlari zikr etilgan xattotlar, Turfondan topilgan o'nlab astronomiya, tibbiyot, dinga oid sug'diy-buddaviy, sug'diy-moniy, sug'diy-nasroniy parchalardan namunalari ayni davrda mintaqamizda ilmu urfonning nihoyatda ravnaq topganining isboti edi. Arab tili va shu til asosida yozuv esa xalifalik istilosi davri bilan bog'liq bo'lib, keyin arab tili va yozuvi dunyo ahamiyati darajasida rivojlangan. Arab tili bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo, jumladan, Samarqand mintaqasida ham forsiy til va yozuv kuchaydi. Shuningdek, ayni davrda turkiy til taraqqiyotini ham alohida e'tirof etish lozim. Arabiy, turkiy va forsiy til keyingi davr Markaziy Osiyo madaniyatining asosini shakllantirishda xizmat qilgan.

Ayniqsa, rivojlangan o'rta asrlarda turkiy til taraqqiyotini alohida ta'kidlash lozim. Turkiy tilda bitilgan «Devoni lug'at it-turk», «Qutadg'u bilig» asarlari o'z davrining shoh asarlari hisoblanadi. Ushbu tilning keyingi taraqqiyoti temuriylar davrida yuz berdi va bu davrda yaratilgan asarlar keyingi davr ilmiy-ma'rifiy taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. Turkiy til turli mintaqada olimlarini yagona

markazlarga birlash-tirdi. Shunday ilmiy markazlardan biri Samarqandda barpo etilgan Mirzo Ulug‘bek madrasasi bo‘lib, u o‘z davrining yirik universiteti hisoblangan. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olim faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ushbu ilmiy maktab o‘z faoliyatida dunyo ilm-fanida chuqur iz qoldirgan o‘rtaosiyolik mashhur qomusiy allomalar Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abul Abbos al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Xolid al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar boshlab bergan ilmiy an’anani davom ettirishga xizmat qildi. Mirzo Ulug‘bek madrasasining vujudga kelishini mintaqada qadimdan davom etib kelayotgan ilmiy an’analarning tabiiy davomi sifatida talqin qilish tarixiy haqiqatga yaqin hisoblanadi. Ushbu oliy ta’lim dargohi qoshida 1428 yilda Ulug‘bek farmoyishi bilan silindr shaklida rasadxona ham bunyod etilgan bo‘lib, mazkur ilmiy muassasa matematik bilimlar taraqqiyoti hamda o‘rta asrlar astronomiya ilmining rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Yevropada astranomik ilmlar endigina kurtak otayotgan bir paytda aniq matematik bilimlar asosida «Ziji Ko‘ragoniy» asarining yaratilishi va uning dunyo ilm-faniga ta’sir etganligini alohida e’tirof etish lozim.

Rasadxonaning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Mirzo Ulug‘bek taklifi bilan yig‘ilgan qator mashhur olimlar G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Kushchilarning nomlari bilan bog‘liq edi. Mirzo Ulug‘bekning o‘limidan so‘ng tarqalib ketgan ushbu ilmiy jamoa jahonning turli mintaqalarida ilmu-fanning rivojiga ta’sir ko‘rsatishgan. Masalan, Ali Qushchi Istanbul universitetining asoschilaridan bo‘lgani manbalarda zikr etiladi.

Lekin tadqiqotlarda o‘rta asrlarda musulmon sharqida vujudga kelgan oliy ta’lim muassasalari eslatilmaydi. Vaholonki, o‘rta asrlar davri, ayniqsa, temuriyzoda Mirzo Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1349 – 1449) davrida ilm-fan va madaniyat o‘rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog‘onasiga chiqqan edi. Sohibqiron Amir Temur (1336 – 1405) davrida mamlakat osoyishtaligi va tinchligini ta’minlash ilm-fanning taraqqiy etishi, ta’lim tizimi rivojini ta’minlab bergan omil hisoblanib, ushbu taraqqiyot mezonlari Amir Temurning nevaralari, jumladan, Mirzo Ulug‘bek davrida ham saqlab qolindi va izchil davom ettirildi. Mirzo Ulug‘bek tomonidan 1420 yili asos solingan madrasai oliya o‘z davrining yirik oliy ta’lim dargohi – universitet talablariga javob bergan yirik ta’lim muassasasi hisoblangan. Mirzo Ulug‘bek 1417 yili Buxoroda ham madrasa qurdirgan bo‘lib, ushbu ta’lim dargohining ahamiyati to‘g‘risida tadqiqotlarda ko‘p marotaba keltirilgani holda, 1420 yil Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining tarixiy ahamiyati masalasi va uning o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rni tutgan yirik oliy ta’lim muassasasi – universitet bo‘lgani masalasi yuzasidan tarix fanida hamon tortishuvlar, bahslar mavjud. Buxoroda Ulug‘bek madrasasi, o‘z xususiyatiga ko‘ra, ta’lim-tarbiya maskani bo‘lib, Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi undan farqli o‘laroq, kitobiy ilmlar asosida

aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlarni tadqiq etishga qaratilgani jihatidan universitet xususiyatlarini o'zida to'liq mujassamlashtirar edi.

Xullas, o'rta asrlarda mavjud bo'lgan muammolardan biri bu odamlarni ma'lum bir diniy g'oya ostida birlashtirish edi. Bu yo'lda, ayniqsa, Yevropada turli sherikchilik birlashmalari, savdogarlar gildiyalari, sanoat-tijorat sexlari va shirkatlar muhim o'rin tutib, ular qoshida dinni targ'ib qiluvchilar, diniy bilimlar beruvchilar faoliyat yuritishgan. Ushbu tashkilotlarning keyinchalik tom ma'noda birlashuvi «universitet» deb yuritilgan. Ushbu holat ma'lum bir tashkilotlarning manfaati uchun xizmat qilgan, albatta. Bu tashkilot katolik cherkovi edi. Shuning uchun ham o'z manfaatlari uchun xizmat qilgan diniy tashkilotlarga universitetlar ochish uchun katolik cherkovi yorlig'i berilardi. Bu yorliqlarda universitetlarning «muxtoriyat huquqi» ham aks etgan bo'lib, unga ko'ra, cherkov ilmiy darajalar berish, sud va boshqaruvni o'z qo'lida qoldirar hamda xohlagan vaqtda uning faoliyatini tugatishi mumkin edi. Lo'nda qilib aytganda, o'rta asr Yevropa universitetlari cherkov yoki muayyan davlat rahbarining ko'rsatmasi asosida tashkil etilgan bo'lib, ma'lum ijtimoiy-siyosiy va diniy omillar ta'sirida shakllangan, ularda, asosan, diniy ta'lim va cherkov falsafasi o'rgatilgan. Yevropadan farqli o'laroq, Sharq, xususan, Markaziy Osiyoda, yana ham aniqroq qilib aytsak, temuriyzoda Mirzo Ulug'bek davrida, temuriylar davlatining muayyan iqtisodiy taraqqiyotga erishishi, shaharlarning ko'payishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, madaniyatning yuksalishi, ilmiy an'analarning davomiyligi Ulug'bek madrasasining vujudga kelishida muhim omil bo'ldi.

Madrasa ilmiy jamoasi va ayni chog'da ushbu ta'lim dargohi qoshidagi rasadxonada vujudga kelgan ilmiy maktab vakillari tomonidan aniq va tabiiy fanlarga bag'ishlangan qo'llanmalar yaratilishi, ulardan dars berishda foydalanish, madrasada dars berish uchun yirik allomalarning taklif etilishi Ulug'bek tomonidan 1420 yili Samarqandda bunyod etilgan madrasai oliya – universitetning keyingi davrlar ilm-fani, jumladan, Samarqand davlat universitetining tashkil topishi uchun ham zamin yaratganini ta'kidlash zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin. Ta'lim tizimi markaziy hokimiyat tizimlari va madaniyat muassasalari majmuasining bir qismidir, bu jamiyatning boshqa tarmoqlariga markaziy madaniyat tizimining muhim tarkibiy qismlarini kiritadi. Shunday qilib, u umumiy madaniyatni shakllantirish va tarqatishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.

2. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ё., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 13-18.
3. Рахимова Машхура Иномжановна, & Хасанов Миршод Нумонович (2020). Роль среднеазиатской философии в развитии мировой и европейской науки. *Вестник науки и образования*, (4-1 (82)), 38-41.
4. Раматов, Ж.С., Хасанов, М.Н., & Жуманиёзова, Н.С. (2022). ТАЛАБА-ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10-2), 866-874.
5. Эрнийёзов, У., РАМАТОВ, Ж., Тухтабоев, Э., Валиев, Л., Жуманиёзова, Н., & Хасанов, М. (2022). ШРИ АУРОБИНДО ҚАРАШЛАРИДА ИНСОН ВА УНИНГ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШ ЗАРУРАТИ. *World scientific research journal*, 9(1), 197-202.
6. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА КАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
7. Раматов, Ж. С., Эрнийёзов, У. К., Султанов, С. Х., & Хасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ. *World scientific research journal*, 9(2), 65-70.
8. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
9. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 591-597.
10. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. У., Султанов, С. Х., Муратова, Д. А., Хасанов, М. Н., & Эрнийёзов, У. К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ КАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОХДЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 376-386.
11. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА КАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
12. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ё., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ КАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОХИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
13. Джуманиёз Раматов, Розигуль Умарова, Рашид Баратов, Миршод Хасанов, Сиродж Султонов, Файзулла Кушаков ПРОБЛЕМЫ ВЛИЯНИЯ ИСЛАМА НА ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЗНАНИЯ // Академические исследования в области педагогическихнаук. 2022. №10. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/problems-of-influence-of-islam-on-coding-transformation> (дата обращения: 31.01.2023).

14. Hasanov M., Tuhtaboev E. THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS) //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 1-6.
15. М.Н.Ҳасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 137–140. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/new/article/view/627>
16. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 582-586.
17. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 969-976.
18. Раматов, Ж.С., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОИЙ – ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1070-1078.
19. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. World scientific research journal, 9(2), 37-42.
20. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1453-1458.
21. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Sultanov, S., & Khasanov, M. (2022). METHODS AND MEANS OF FORMATION OF SPIRITUAL MORAL CONSCIOUSNESS IN STUDENTS AND YOUTH OF UZBEKISTAN. World scientific research journal, 10(1), 257-262.
22. Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 1226-1235.
23. Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.
24. Эрнийёзов, У. К., Ҳасанов, М. Н., & Машарипов, Х. С. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.
25. Журабоев, Носир Юсупович, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ СОҶА РИВОЖИ: ИСЛОҲОТ ВА ИСТИҚБОЛ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1274-1283.
26. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ

- МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1345-1354.
27. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 969-976.
28. Нилуфар Жўраевна Назарова, & Миршод Нўмонович Ҳасанов (2022). ТАЛАБАЛАРДА БЎШ ВАҚТДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 752-758.
29. Миршод Нўмонович Ҳасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ТАЪЛИМОТИ АСОСИДА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 393-398.
30. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ОНТОЛОГИЧЕСКИХ И ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ АЛЬ-ФАРАБИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (6), 537-546.
31. Ф. А. Кушаков, М. Н. Ҳасанов, Р. Ў. Баратов, Ж. С. Раматов, С. Ҳ. Султанов ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ // *Academic research in educational sciences*. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekistonda-inson-u-u-lari-va-s-z-erkinligi> (дата обращения: 15.02.2023).
32. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 984-988.
33. Миршод Нўмонович Ҳасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИНСОННИ АХЛОҚИЙ КАМОЛОТИ ТЎҒРИСИДАГИ ҚАРАШЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙТАРИХИЙ МАНБАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 776-784.